



## “BOLALAR PSIXOLOGIYASI FANINING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARKIBIY TUZILISHI” MODULINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Madaminova Shohsanam Odiljon qizi

Qo‘qon unvetsiteti Ta’lim kafedrasini o‘qtuvchisi

Email: madaminovashohsanamxon43@gmail.com

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Bolalar psixologiyasi psixologiyaning fanini maqsadi vazifasini talabalarga interfaol usullardan foydalangan xolda bolaning tug‘ilganidan to voyaga yetgunga qadar bo‘lgan psixik rivojlanishini, turli yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanish qonuniyatlarini, rivojlanishning turli bosqichlari o‘rgatish.

**Kalit so‘zlar:** Bolalar psixologiyasi, ma’naviy, Oliy ta’limning, Interfaol, metod, psixik, globallashuv, rivojlantirish, globallashuv

Bugungi globallashuv davrida zamon talablaridan kelib chiqib, talaba-yoshlarni zamonaviy ta’lim paradigmalari asosida har tomonlama barkamol, komil inson qilib tarbiyalash oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari oldiga mas’uliyatli vazifalar qo‘ymoqda. Bugungi yosh avlod, ertangi kun bunyodkorlari, millat kelajagi. Shu o‘rinda Prezident Sh.Mirziyoyevning fikrlarini keltirishimiz joiz: “Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishi yuz bermaydi”.<sup>1</sup>

Jamiyatda ta’lim sohasining o‘sishi, shuningdek, ta’lim mahsulotining o‘z o‘rniga ega bo‘lishi va ta’lim jrayonlarining intensivlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarning va ta’lim texnologiyalarining kengayishi bilan bog‘liq. Oliy ta’limda ta’lim xizmatlarining sifati ta’lim muassasalari raqobatbardoshligining tarkibiy qismlaridan biridir.

Ma’lumki, ta’limga ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirmoqchimiz: “**Har qarichi muqaddas bo‘lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g‘urur va iftixon, sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko‘raylik”.**<sup>2</sup> Haqiqatan ham bunday insoni tuyg‘ularning talaba-yoshlar ongiga singdirilishi haqiqatdir.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –B. 55.

<sup>2</sup> Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: «O‘zbekiston», 2009, 15-bet.



Shu yo'sinda Respublikamiz Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonida ham "oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" zarurligi ta'kidlangan.<sup>3</sup> Oliy ta'limning pedagogika-psixologiya, psixologiya ta'lim yo'nalishi Bolalar psixologiyasi darslarida interaktiv metodlar asosida "Bolalar psixologiyasi fanining maqsadi, vazifalari va tarkibiy tuzilishi" modulini o'tish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv ishining maqsadi mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar aniqlandi:

- bolalar psixologiyasi fani haqida ma'lumot berish;
- bolalar psixologiyasi fani bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish;
- interaktiv metodlarning talaba-yoshlar faolligini oshirishdagi ahamiyatini belgilash va bu modelning mazmun-mohiyatini ochib berish;
- ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot ishimizda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimidagi eng muhim va dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimiga e'tibor qaratilsa, ko'rishimiz mumkinki, ularda ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarining fikrashi, dunyoqarashi, jamiyatga kirishuvchanligi va muammoli vaziyatlarga oqilona yondashuvlar bilan o'z munosabatini bildira olish xususiyatlariga alohida ahamiyat beriladi.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini xalqaro standartlarga muvofiq yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim oluvchilarining tanqidiy, mantiqiy fikrleshini shakllantirish, ijtimoiy-emotsional rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Buning misoli sifatida Prezidentimizning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi<sup>4</sup> PF-5712-sonli, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi<sup>5</sup> PF-6097-sonli, 2022-yil 11-maydagi "2022 – 2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy

<sup>3</sup> O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. (<https://lex.uz/docs/-4312785>)

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son. (<https://lex.uz/docs/-5073447>)



dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi<sup>6</sup> PF-134-sonli, 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-sonli Farmonlari hamda 2019-yil 31-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi<sup>7</sup> 1059-sonli qarorida keltirilgan vazifalar hamda ilg‘or xorijiy tajribalarning yurtimizga olib kelinishi, mahalliylashtirilishi va tatbiq qilinishida ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu farmon va qarorlarda inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish ta’lim tizimida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar va ta’lim sifatini yuksaltirish yo‘llari atroflicha belgilab berilgan.

“Psixologiya” ikkita yunoncha so‘zdan “psyche”- jon, ruh va “logos”ta’limot, ilm so‘zlaridan iborat bo‘lib, an’anaviy ma’noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmeti har birimizning tashqi olamni va o‘z-o‘zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlarni tashkil etadi. Psixologiya bo‘yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, psixikadir, deb ta’rif berishadi. Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni, ichki ruhiy olamni ham ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi.

Psixikaning jarayonlari quyidagicha:

1. Bilish faoliyati: diqqat, nutq, faoliyat
2. Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur
3. Shaxsnинг hissiy-irodaviy sohasi: hissiyot, iroda
4. Shaxsnинг individual-psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.

Psixologiya – juda qadimiy va shu bilan birga navqiron fandir. Psixik hodisalarning ilk talqini qadimiy yunon olimi Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322 yillar)ning “Ruh haqida” nomli asarida berilgan. Psixik hodisalar va ularning qonuniyatlariga taalluqli ilmiy tadqiqot ishlari XIX asrning ikkinchi yarmida, ilmiy psixologiya asoslari esa XIX va XX asrlar o‘rtasida yuzaga kelgan.<sup>8</sup>

Hozirgi kunda psixologiyaning 300 dan ortiq tarmog‘i fan sifatida rivojlanib kelmoqda. Shulardan yosh davrlari psixologiyasi, bolalar psixologiyasi, maxsus

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son. (<https://lex.uz/docs/6008663?ONDATE=11.05.2022%2000>)

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son. (<https://lex.uz/docs/4676839>)

<sup>8</sup> “Ruh haqida”kitobi Aristotel



psixologiya, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, yuridik psixologiya, sport psixologiyasi, aviasiya psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi va boshqalar shular jumlasidandir.

Bolalar psixologiyasi – psixologiya fanining alohida tarmog‘i bo‘lib, bolaning tug‘ilganidan to yetuklik davrida psixik taraqqiyotini, turli yosh davrlaridagi bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, rivojlanishining turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlarini o‘rganadi.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e’tibori tug‘ilganidan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongingin qanday rivojlanishiga qaratilgan, ya’ni har bir shaxs uzoq bolalik davrini boshdan kechiradiki, bu davrda unda alohida psixik jarayonlar va xususiyatlar yuz beradi. Shuning uchun ham bu davrni fanda alohida ajratib o‘rganiladi va uni ontogenetik taraqqiyot yo‘li deyiladi.

Ontogenez – bu organizmning individual rivojlanishidir.

Bolalar psixologiyasi bola psixikasining taraqqiyoti hamda shaxsiy xususiyatlarining yuzaga kelishiga ta’sir qiluvchi omillarni ham o‘rganadi.

Bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining oldida bir qancha muhim nazariy va amaliy vazifalari turadi, uning nazariy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Turli yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni, ya’ni bolalarning idrokiga, sezgi-tuyg‘ulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga, irodasiga xos xususiyatlarni o‘rganish;
2. Bolaning psixik taraqqiyotiga faol ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab berish;
3. Turli yoshdagи bolalarning rivojlanishiga xos bo‘lgan qonuniyatlarni o‘rganish;
4. Bola shaxsi va shaxsiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rganish;
5. Bolani maktab ta’limiga tayyorlash;
6. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun bolaning aqliy jarayonlarini faollashtirish;
7. Ta’lim jarayonida bolaning mustaqil, ijodiy, faol tafakkurini shakllantirish;
8. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning maxsus qobiliyatlarini shakllantirish;
9. Ta’lim-tarbiya ishlarining psixologik mazmunini ochib berishdan iboratdir.

Uning amaliy vazifalariga turli yoshdagи bolalarning psixik taraqqiyoti xususiyatlariga doir bilimlarni tarbiyachilar, o‘qituvchilar, ota-onalar ya’ni jamoatchilar o‘rtasida keng yoyishdan iborat. Bolalar psixologiyasining amaliy



vazifasi – bola ruhiy taraqqiyotiga, yoshlik xususiyatlari orasidagi farqlar va ularga individual munosabatda bo‘lish yo‘llariga oid, ruhiy taraqqiyot qonunlariga doir psixologik bilimlardan bahramand bo‘lishlarini ta’minlashdan iborat. Bunday vazifalarni amalga oshirish komil insonni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishda har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Pedagogik muloqot o‘rnatish uchun zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ehtiyoji tug‘ildi. Bu texnologiyalardan biri interaktiv dars usullaridir. Lotinchadan “inter”- o‘zaro, “akt”- muloqot, yaqinlikdir. Interaktiv usullardan foydalanishdan maqsad shuki, darslarni qiziqarli, sermazmun, eng muhimi samarali qilib o‘tkazishdir. Bunda talabaning bilimi ortadi, shaxsiyati rivojlanadi va o‘quv jarayonining mahsuldorligi ko‘payadi. Ma’lumki, yaxshi o‘zlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib o‘tirish yetarli emas, balki shu material ustida faol ishslash, o‘ylab ko‘rish, muhokama qilib chiqish, yordamchi vazifalar bajarishi kerak.

Interfaol o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini shunday tashkil etadiki, unda barcha o‘quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Bilish jarayonida o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati deganda, ularni har birining o‘ziga xos aloqada individual hissa qo‘shishi, o‘zaro bilimlar, g‘oyalari va faoliyat usullari bilan almashinishlari tushuniladi. Shu bilan birga, bularning hammasi o‘zaro xayrixohlik va qo‘llab-quvvatlash muhitida amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida yangi bilimlarni olishgagina imkoniyat bermasdan, balki bilish faoliyatining o‘zini ham rivojlantiradi, uni yanada yuqoriq hamkorlik pog‘onalariga olib chiqadi.

Darslardagi interaktiv faoliyat o‘zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiyl, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan diologli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Dialogli o‘qitish jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarni va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko‘rishga, ulab va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, diskussiyalarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqat qilishga o‘rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o‘yinlar qo‘llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ishlar qo‘llaniladi.

Interfaol o‘qitishni tashkil qiluvchilar uchun, sof o‘quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:



✓ guruhdagi o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari jarayonida boshqalarning qadriyatlarini tushunib yetish;

✓ boshqalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish va ular yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;

✓ o‘quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

Shuning uchun interfaol o‘qitish guruhlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan ikkita asosiy funktsiyalar amalga oshirilishi lozim:

✓ o‘qitishning pragmatik jihatni qo‘yilgan o‘quv masalasini yechishlikning shartligi;

✓ tarbiyaviy masalalarni yechish (hamkorlikdagi ish jarayonida guruh a’zolariga yordam ko‘rsatish, xulq-atvor normalarini shakllantirish).

Ushbu faktini alohida qayd etish lozimki, o‘qitishning barcha interfaol usullarini verbal (og‘zaki) va noverbal usullarga ajratish mumkin.

Og‘zakilarga quyidagilar kiradi:

✓ vizual: yuz ifodasi, gavdaning holati, harakatlar, ko‘zlar orqali aloqa;

✓ akustik: intonatsiya, ovoz balandligi, membr, nutq tempi, tovush balandligi, nutqiy pauzalar va hokazo.

Verbal usullar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

✓ "oxiri ochiq" bo‘lgan savollar, ya’ni yagona "to‘g‘ri" javobga emas, balki muammo (savol) bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni bayon qila olishga yo‘naltirilgan savollarni bera olish qobiliyati;

✓ o‘quvchilar bilan muloqotda o‘qituvchi tomonidan o‘zining nuqtai nazarini hal qiluvchi nuqtai nazar deb emas, balki neytral deb aniqlanishi. Bu narsa mashg‘ulot paytida o‘quvchilarga qo‘rmasdan "to‘g‘ri" va "noto‘g‘ri" nuqtai nazarlarini bayon etish imkoniyatini beradi;

✓ mashg‘ulotning tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishga tayyorgarlik.

Ushbu holat mashg‘ulotlarda nima?, qanday? va nima uchun? sodir bo‘lganini, o‘zaro faoliyat qaerda "osilib" qolganini, u nima bilan bog‘liq ekanligini, keyinchalik bunday holatlarning ro‘y bermasligi uchun nimalar qilish kerakligi va boshqalarni tushunib olishga yordam beradi. Mashg‘ulotning borishini, uning kulminatsiyasini, natijaviyligini va boshqa kuzatish imkonini beruvchi yozma xotiralarni yozib borish.

Birinchi bo‘limga alohida e’tibor qaratishni istar edik. O‘qituvchining savoli – bu o‘quvchining tafakkurini bostirish yoki rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Savolning ikki xil turi mavjud (interfaol o‘qitish nuqtai nazaridan).

o‘quvchining fikr doirasini chegaralab, uni bilganlarni oddiy qayta tiklashga keltirib qo‘yadigan savollar. Bunday savollar fikrlash jarayonini to‘xtatib turishga



xizmat qilib, o‘quvchiga uning fikri hech kimni qiziqtirmasligini tushunib yetishiga olib keladi; fikr yuritish, o‘ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi savollar. Bunday savollar fikrlash darajasini ko‘tarish bilan birga, o‘quvchilarda ularning ham fikri qimmatga ega ekanligiga ishonch uyg‘otadi.

Quyida savolni to‘g‘ri ifoda qilish bo‘yicha bir qancha tavsiyalar keltiriladi.

- ✓ Savollarni aniq va qisqa qo‘yish lozim.
- ✓ Bitta savol orqali faqat bir narsani so‘rash.
- ✓ Savol mavzu bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak.
- ✓ Savoldagi barcha so‘zlar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi kerak.
- ✓ Har bir savolga bir nechta javob bo‘lishiga harakat qiling.
- ✓ Aniq narsalardan umumiyya borishga harakat qiling. Bu holat o‘quvchilarni o‘ylashi va savolga javob berishida yengillik tug‘diradi.
- ✓ Faqatgina "ha" yoki "yo‘q", "to‘g‘ri" yoki "noto‘g‘ri" degan javoblar beriladigan savollarni berishdan saqlaning.
- ✓ O‘quvchilarga o‘z tajribalariga tayangan holda javob beradigan savollarni bering.
- ✓ O‘zining nuqtai nazarini bildiradigan savollarni bering.
- ✓ Qo‘yilgan savolga javob berilganda, o‘quvchilardan "Nima uchun shunday deb o‘ylaysiz?" deb so‘rab turing.
- ✓ Interfaol metodlar bo‘yicha o‘qish jarayonini tashkil etilganda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan yana bir holat, bu vazifaning mazmuni. Vazifaning mazmuni o‘qitishning an’anaviy shakllariga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi lozim.

#### **Dumaloq stol metodi:**

► Topshiriq yozib qo‘yilgan qog‘oz varag‘i davra bo‘ylab o‘tkaziladi. Har bir talaba o‘zining javob variantini yozib qo‘yadi va varaqni boshqa talabaga uzatadi. Javoblar tugagach, muhokama bo‘ladi. Noto‘g‘ri javoblar o‘chiriladi, to‘g‘ri javoblar soniga qarab talabalar baholanadi.

► Masalan: 1 Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ko‘rsating. 2 Pedagog mahoratlarini aytib bering. Yoki 1 Shaxs komponentlarini belgilab bering. 2 Leongard bo‘yicha xarakter xususiyatlarini sanab bering va h. k.

#### **Uch bosqichli intervyu:**

► Guruh 3 ga bo‘linadi pedagog – talaba - ekspert. Har bir guruh shu rollarni egallaydi. “Pedagog” guruhi mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar berishi, “talaba” guruhi javob berishi, “Ekspert” guruhi ularni baholashi zarur. Ekspert 3 bo‘limga bo‘lib baholaydi:

► Nimalar to‘g‘ri qilindi.



- ▶ Nimalar noto‘g‘ri qilindi.
- ▶ Qanday qilish kerak edi.
- ▶ Bu metod talabalarga so‘rab-surishtirish, pedagogik muloqot olib borish, bilim va malakalarni tekshirish va baholashni o‘rgatadi.

#### ***“Qor bo‘ron” metodi.***

- ▶ Ikkı guruh talabalari bir muammo yoki vaziyatni muhokama qilib eng ko‘p miqdorda to‘g‘ri javoblar olish ko‘zda tutiladi. Har bir to‘g‘ri javob yumaloqlangan qor ko‘rinishida o‘scha guruhgaga ball tariqasida yozib qo‘yiladi. Eng ko‘p ball olgan guruh a’lo baholanadi.

#### ***Kritik vaziyatni tahlil qilish.***

Biror bir tashvishli muammoli vaziyat muhokama qilinishi ko‘zda tutiladi. Bunda nimani boshqacha qilish kerak edi, nima uchun bu xatoga yo‘l qo‘yildi, xatoni takrorlamaslik yoki tuzatish uchun nimalar qilish lozim, degan masalalar ko‘rib chiqiladi. Javob variantlari iloji boricha ko‘p bo‘lishi kerak.

Turli xil o‘qitish usullaridan foydalangan holda siz "Bolalar psixologiyasining maqsad va vazifalari" modulini o‘rganishni qiziqarli, ma'rifiy va amaliy qo‘llanilishi mumkin.

### **XULOSA**

1. "Bolalar psixologiyasi fanini tashkil etuvchi maqsad va vazifalar" modulini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish an‘anaviy o‘qitish usullariga nisbatan sezilarli afzalliliklarni ko‘rsatdi.
2. Interaktiv usullar quyidagilarga yordam berdi:
  - \* Talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirish.
  - \* Materialni tushunish va o‘zlashtirish darajasini oshirish.
  - \* Tanqidiy fikrlash, tahliliy ko‘nikmalar va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish.
  - \* Ko‘proq interaktiv va dinamik o‘quv muhitini yaratish.
  - \* O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi aloqani yaxshilash.
3. Munozara, rolli o‘yinlar va muammoli topshiriqlar kabi usullar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash orqali o‘quv jarayonida faol ishtirok etish imkonini berdi. Ma'lumotlarni tahlil qilish va gipoteza yaratish usullari o‘zlarining tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirdilar.
4. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol usullardan foydalangan holda dars o‘tayotgan talabalar modul mazmunini tushunish, qo‘llash va tahlil qilish testlarida yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Shuningdek, ular o‘quv jarayonidan qoniqish hosil qilishdi.



**Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. –B. 55.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. –T: "O'zbekiston" 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil, 23-sentabr, № O'RQ-637.
4. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostiasi T.: TDPU 2017 – 264 b.
5. G'oziyev E. Ontogenet psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010. – 356 b.
6. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.
7. Shapovalenko I.V. Vozrastnaya psixologiya (Psixologiya razvitiya i vozrastnaya psixologiya): uchebnik dlya studentov vuzov. – M.: Gardariki, 2007. –349 s.
8. Babayeva T.I. Bolalar bog'chasida bolalarni maktabga tayyorlashni takomillashtirish. - L., 1990 yil.
9. Pedagogika. Umumiy pedagogika asoslari. Didaktika / o'quv qo'llanma N.I. Prokoviev, N.V. Mixalkovich. Minsk: TetraSystems, 2002 yil
10. Breslav G. M. Bolalikda shaxs shakllanishining hissiy xususiyatlari. - M., 1990 yil.
11. Imomaliev, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
12. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 408-411.
13. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp. 25-26).
14. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1048-1052.
15. Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITO BXONLIK KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O 'RNI. Kokand University Research Base, 216-219.
16. Maxliyoxon, O., & Shaxnozaxon, J. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. ISBN-13, 979-8324468415.
17. O Maxliyoxon. (2024). MODERN INTEGRATION OF PRIMARY EDUCATION, ART, PEDAGOGY AND INFORMATION COMMUNICATION. ISBN-13 : 979-8323781928 1, 158
18. Odilova, M. (2024). O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA PISA TESTINING ISTIQBOLLARI. *Nordic\_Press*, 3(0003).